

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI HAQIDA

Qorjovova Marjona Rustam qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi yutuqlari hamda kelgusidagi maqsadlari yoritilgan. Maqolada mavzuga doir dolzarb ma’lumotlar, strategiyaning xalqaro ahamiyati va milliy manfaatlarini ta’minlashdagi o‘rni xolis tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston aholisi, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy soha, raqamli iqtisodiyot, milliy manfaat, fuqarolik jamiyati, jahon hamjamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqillikka erishgan davridan buyon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan qadamlarni tashlab kelmoqda. So‘nggi yillarda mamlakat taraqqiyot strategiyasi yangi bosqichga ko‘tarilib, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va xalq farovonligini oshirish asosiy maqsadlarga aylangan.

“Taraqqiyot strategiyasi” atamasi faqat iqtisodiy rivojlanish bilan cheklanib qolmay, balki kengroq ma’noda siyosiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va milliy manfaatlarini himoya qilishni ham o‘z ichiga oladi. Bu strategiya mamlakatning barcha sohalarini qamrab olib, O‘zbekistonni XXI asrning ilg‘or davlatlaridan biriga aylantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi milliy manfaatlarini ta’minlash va xalq farovonligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan keng qamrovli dasturdir. Bu strategiya quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshirilmoqda:

1. Davlat va jamiyat qurilishini modernizatsiya qilish. Bu yo‘nalishda davlat boshqaruvining ochiqligini ta’minlash va fuqarolar ishtirokini kengaytirish maqsadida

“Elektron hukumat” tizimi faol joriy etilmoqda. Bu tizim byurokrtiyani qisqartirish va fuqarolarga qulay xizmat ko‘rsatishni ta‘minlaydi[1].

Qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurash strategiyaning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib, bu borada yangi qonunchilik asoslari shakllantirildi. Jumladan, O‘zbekiston Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyat olib bormoqda. Mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning faoliyatini rag‘batlantirish bo‘yicha qator dasturlar qabul qilindi.

2. Iqtisodiy islohotlar va raqamli rivojlanishi deb nomlanib, unda iqtisodiyotda liberallashtirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘shishga erishish strategiyaning muhim yo‘nalishidir. Xususan, soliq tizimini soddalashtirish, yer va mol-mulkni xususiylashtirish jarayonlari tezlashtirildi.

Raqamli iqtisodiyot va texnologik rivojlanishga katta e‘tibor qaratilib, IT-parklar tarmog‘i kengaytirildi. Ushbu soha nafaqat milliy iqtisodiyotga, balki eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda[2].

Energetika sohasida “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish strategiyaning muhim qismidir. Quyosh va shamol elektr stansiyalarining qurilishi buni yaqqol isbotlaydi.

3. Ijtimoiy rivojlanish va ta‘lim sohasidagi islohotlar. Ta‘lim tizimini isloh qilish orqali xalqaro standartlarga mos kadrlarni tayyorlash asosiy maqsadlardandir. Xususan, oliy ta‘lim muassasalarining soni ko‘paytirilib, chet el universitetlari filiallari ochilmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasida zamonaviy klinikalar va diagnostika markazlarini qurish, tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoya tizimida ehtiyojmand oilalar va fuqarolarga yordam ko‘rsatish mexanizmlari mustahkamlanib, “Yagona ijtimoiy reyestr” orqali yordam olish tizimi joriy etildi[4].

4. Ekologik barqarorlik. Orolbo‘yi ekologik inqirozining oqibatlarini bartaraf etish va bu hududni yashil zona sifatida rivojlantirishga qaratilgan loyihalar davom

ettirilmoqda. “Yashil Orol” loyihasi doirasida minglab gektar maydonda daraxtlar ekildi. Iqlim o‘zgarishiga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha xalqaro hamkorlik kuchaytirildi. Xususan, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda[3].

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish deb nomlangan yo‘nalishda esa, O‘zbekistonning mintaqaviy siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stlik aloqalarini mustahkamlash va iqtisodiy integratsiya asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va BMT bilan hamkorlikning kuchayishi iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eksportni oshirish maqsadida yangi bozorlar izlanmoqda va xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi[1].

O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ushbu yo‘nalishlari nafaqat mamlakatning ichki rivojlanishiga, balki uning xalqaro nufuzini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu strategiya uzoq muddatli barqaror taraqqiyotga yo‘naltirilgan bo‘lib, uni amalga oshirishda xalqning ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi mamlakatni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli islohotlar tizimidir. Ushbu strategiya fuqarolarning hayot sifatini oshirish, zamonaviy boshqaruv tizimini shakllantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali O‘zbekistonni mintaqadagi yetakchi davlatlardan biriga aylantirishga qaratilgan. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va inson kapitalini rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar mamlakatning global miqyosdagi nufuzini oshirmoqda. Orolbo‘yi ekologik inqirozini bartaraf etish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi tashabbuslar ham xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Mazkur strategiyaning muvaffaqiyati nafaqat davlat rahbariyati, balki jamiyatning har bir a‘zosi tomonidan amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlov va faollikka bog‘liqdir. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, xalqaro tajribani hisobga

olgan holda, mamlakatni yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratmoqda. Shu tariqa, davlat va jamiyatning uyg'un rivojlanishi orqali kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 28.01.2022. www.Lex.uz. internet sayti.
2. Inson qadri, halollik standartlari, pragmatik tashqi siyosat. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 100 maqsadi. www.gazeta.uz internet sayti
3. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi inson qadrini ulug'lashga xizmat qiladi. O'zbekiston milliy axborot agentligi telegram kanali.
4. Ismoilov T. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. fan bo'yicha ma'ruza matni. Namangan. 2023. 167-175-b.